



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILİYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anjion G'ayratovich	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN	93
Axliddin Aroplitdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
Айматова Фарида Хуразовна	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	113
Xakimov Zafar Ibragimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	118
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
Muhammadieva Nodira	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
Santjar Abdumurodovich Sattorov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI	139
Allamuratova Perida Maxsetbaevna	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI	144
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI	152
Alikulov Samar Abdurashidovich	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI	159
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI	165
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV XIZMATLARINI RAQAMLI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	168
Maxmudov Boburbek Axmedjan o'g'li	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ	172
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
MAJBURIY IJRO HARAkatLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	177
Matmuratova Nasiba Azatovna	
OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI	181
Pulatov Abdulla	
INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	185
Nazarov Aziz Avazovich	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	190
Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI	197
Omonova Nafisa Qahramon qizi	
MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION	200
Ahrorova Asila	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	207
Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna	
INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI ANIQLAB BERUVCHI KO'RSATKICHLARNING KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI	212
Tursunov Rasul Tairovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	218
Эргашева Феруза Насруллаевна	
ENHANCING THE METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM VILLAGES IN UZBEKISTAN	226
Khudaynazarova Dilorom Khayrullaevna	
THE ROLE OF INNOVATION IN ENSURING COMPETITIVENESS IN THE GREEN ECONOMY	231
Musadjanova Nargiza Abdvoxid qizi	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI	238
Saodat Sadriddinova	
OLIY TA'LIMDA CHET TILLARNI O'QITISH UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	243
Saida Xabibullayeva	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИСКАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	247
Исматиллаева Роза Тухтамуратовна, Тураева Сурия Тельмановна	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASHTERINING QIYMAT YARATISH UZLUKSIZ ZANJIRIDA AGROSERVIS XIZMATLARI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	252
Kudratova Iroda Turdibayevna	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI	257
Nurullayeva Raushan Koptleuovna, Nurimbetov Timur Uzaqbergenovich	
FIZIKA UMUMIY KURSIGA NANOTEKNOLOGIYA TUSHUNCHALARINI KIRITISHNING METODIK ASPEKTLARI VA KOMPONENTLARI	260
Sottarov Abduvali Umirqulovich	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK HISOBOTLAR VA ULARNING TUTGAN O'RNI.....	266
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Rahmanova Sitara Bahodir qizi	
SANOAT KORXONALARIDA OPERATSION MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	277
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MOLİYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH.....	283
Turotova Nigora Xolmurod qizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION INVESTITSİYALASH VA MUQOBIL MOLİYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI JORIY ETISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA)	286
Maxamadiyev Turg'unboy Jumabayevich	
O'ZBEKISTONDA XO'JALIK JAMIYATLARI KUZATUV KENGASHLARI FAOLIYATINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH.....	292
Valijonov Akmaljon	
IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH: NAZARIY VA USLUBIY YONDASHUVLAR	296
Matrasulov Baxodir Erbutayevich	
O'ZBEKISTON MOLİYA TIZIMIDA MAHALLIY MOLİYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	303
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
МЕТОД ФОРМИРОВАНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ТУРИСТИЧЕСКОГО ПАКЕТА	308
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI XUDUDIY TARKIBINI TAKOMILASHTIRISH YO'LLARI	311
Uralov Eliboy Omonovich	
INNOVATSION VA AN'ANAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING TAQQOSLAMA TAHLILI	316
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
EKSPORT IMKONIYATLARI VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI SOLISHTIRISH.....	320
Safarova Muxabbat Radjabovna	
IJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI O'SISHI DINAMIKASI VA LIKVIDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	324
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
KO'CHMAS MULKNI OMMAVIY BAHOLASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI.....	331
Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li	
TURIZM XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA MOLİYAVIY HISOBOTLARNI MHXS GA O'TKAZISHDA TRANSFORMATSIYA REJASINI ISHLAB CHIQUISH MASALALARI.....	339
G'afforov Ithomjon Ilyosjonovich	
QURILISH SANOATI KORXONALARI DIVERSIFIKATSIYALASHUVINING IQTISODIY MEKANIZMLARI	343
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHNING NAZARIY JIHATLARI	351
Ulashova Zarnigor Botirali qizi	



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHNING NAZARIY JIHATLARI

Ulashova Zarnigor Botirali qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
mustaqil izlanuvchisi

Orcid: <https://orcid.org/0009-0005-3853-5101>

Email: zarnigorulashova86@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2017-yildan boshlab O'zbekistonda amalga oshirilgan yangi iqtisodiy siyosat natijasida kambag'allik masalasi ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida kun tartibiga kirib kelgani yoritilgan. Kambag'allik darajasi mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari va aholi turmush darajasida namoyon bo'lib, deyarli barcha iqtisodiy tizimlarda muhim ijtimoiy muammo sifatida qaraladi. Mazkur hodisa mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, mehnat bozorida raqobatning sustlashuviga, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi nomutanosiblikka hamda aholi xarid qobiliyatining pasayishi natijasida umumiy bozor talabining qisqarishiga olib keladi. Shu bois kambag'allik daromadlar tengsizligining oqibati sifatida talqin qilinib, uni qisqartirishning yangi yondashuvlari tadqiq etilgan.

Shuningdek, "kambag'allik" tushunchasiga oid nazariy qarashlar tahlil qilinib, mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan va asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, aholi, xarid qobiliyati, bozor, ijtimoiy ehtiyoj, minimal daraja, siyosat, BMT, gender tengligi, tadbirkorlik, talab, kategoriya, MDH, ko'rsatkichlar, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillar, iqtisodiy tahdid, daromadlar tengsizligi.

Abstract. This article examines the concept of poverty, which entered the socio-economic discourse of Uzbekistan as a result of the new economic policy initiated in 2017. The level of poverty is reflected in the country's production capacity and the living standards of the population, and it manifests itself as a social issue in almost all economic systems.

This phenomenon negatively affects the country's economic development by weakening competition in the labor market. It also causes imbalances between economic and social systems and reduces aggregate market demand due to a decline in the purchasing power of the population. As a result, poverty is considered a consequence of income inequality, which necessitates the development of new approaches to poverty reduction.

At the same time, theoretical approaches to the concept of "poverty" are analyzed, and the author's own definition of this concept is developed and substantiated.

Key words: poverty, population, purchasing power, market, social needs, minimum level, policy, UN, gender equality, entrepreneurship, demand, category, CIS, indicators, economic, social, demographic, socio-economic, political factors, economic threat, income inequality.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие бедности, которое вошло в социально-экономический дискурс Узбекистана в результате новой экономической политики, начатой в 2017 году. Уровень бедности отражается в производственных возможностях государства и уровне жизни населения и проявляется как социальная проблема практически во всех экономических системах.

Данное явление оказывает негативное влияние на экономическое развитие страны, приводя к снижению конкуренции на рынке труда. Оно также вызывает дисбаланс между экономическими и социальными системами и сокращает совокупный рыночный спрос вследствие снижения покупательной способности населения. В результате бедность рассматривается как следствие неравенства доходов, что обуславливает необходимость разработки новых подходов к её сокращению.

Вместе с тем проанализированы теоретические подходы к понятию «бедность», а также разработано и обосновано авторское определение данного понятия.

Ключевые слова: бедность, население, покупательная способность, рынок, социальные потребности, минимальный уровень, политика, ООН, гендерное равенство, предпринимательство, спрос, категория, СНГ, показатели, экономические, социальные, демографические, социально-экономические, политические факторы, экономическая угроза, неравенство доходов.



KIRISH

O'zbekistonda 2017-yilgacha kambag'allik tushunchasi rasmiy va ilmiy muomalada deyarli qo'llanilmagan. 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan yangi iqtisodiy siyosat natijasida kambag'allik masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda kambag'allik darajasi mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari va aholi turmush darajasida namoyon bo'lib, deyarli barcha iqtisodiy tizimlarda dolzarb ijtimoiy muammo sifatida qaraladi. Ushbu holat mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, mehnat bozorida raqobatning sustlashuviga, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi nomutanosiblikning kuchayishiga hamda aholi xarid qobiliyatining pasayishi natijasida umumiy bozor talabining qisqarishiga olib keladi. Shu bois kambag'allikni daromadlar tengsizligining oqibati sifatida tadqiq etish va uni qisqartirishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda kambag'allikning kelib chiqish sabablari, uning oldini olish, aholi daromadlarini oshirish hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari global muammo sifatida o'rganilmoqda. United Nations ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda qariyb bir milliard aholi kuniga bir AQSH dollari hisobiga yashaydi, 2,5 milliard kishining kunlik daromadi esa ikki AQSH dollaridan oshmaydi. Shuningdek, 2030-yilga borib dunyoda 575 million kishi o'ta qashshoqlik sharoitida yashashi, 84 million bola esa maktabga bora olmasligi prognoz qilinmoqda. Hisobotlarda 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish jarayonida, jumladan, "nol ochlik" maqsadi bo'yicha ham sezilarli qiyinchiliklar mavjudligi ta'kidlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotda kambag'allikni qisqartirish masalalari uzoq yillardan buyon xorijiy olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Xususan, Plato, Georg Wilhelm Friedrich Hegel, John Maynard Keynes, Alfred Marshall, John Stuart Mill, David Ricardo, Adam Smith, Milton Friedman, Friedrich Hayek va boshqa olimlarning¹ asarlarida kambag'allikning nazariy asoslari, uning iqtisodiy tizimlarga ta'siri hamda daromadlarni taqsimlashdagi nomutanosibliklar keng yoritilgan.

Aholi bandligini ta'minlashda gender tengligiga ustuvorlik berishning ilmiy-nazariy asoslari va uni tartibga solish vositalari xorijiy olimlar tomonidan ham chuqur o'rganilgan. Jumladan, Claudia Goldin, Sarah Pekkanen Kerr, Claudia Olivetti, Roger LeMoyné, Drude Dahlerup, Lena Wängnerud Freidenvall va boshqa tadqiqotchilar tomonidan gender tengligi, ayollar bandligi va mehnat bozorida teng imkoniyatlar masalalari tahlil qilingan.

MDH mamlakatlari olimlari orasida G. Khomutova, V. Kotelnikova, S. Zhumabekova, G. Vasiliyeva, A. Mikhaylova, K. Iskakova, A. Syzdykova, A. Khokhlova, V. Sytova va A. Platonova tomonidan mehnat bozorida gender tengligini ta'minlashning shakllanish bosqichlari, rivojlanish tendensiyalari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan². Ularning tadqiqotlarida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va mehnat bozorida tenglikni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ayollar bandligini ta'minlash va gender tengligining nazariy asoslarini takomillashtirish masalalari Kudrat Abdurakhmanov, G. Abdurahmonova, I. Fayziyev, X. Saydivaliyeva, S. Muradova, Sh. Toxtiyarova va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan³. Shuningdek, institutsional o'zgarishlar sharoitida O'zbekistonda kambag'allik, uning oqibatlari va uni

- 1 Goldin C. (2014). A grand gender convergence: its last chapter. *American Economic Review*, 104, 1091–1119; Goldin, Claudia, Sari Pekkala Kerr, Claudia Olivetti, and Erling Barth. 2017. "The Expanding Gender Earnings Gap: Evidence from the LEHD-2000 Census." *American Economic Review*, 107 (5): 110–14; LeMoyné, Roger (2011). "Promoting Gender Equality: An Equity-based Approach to Programming". Operational Guidance Overview in Brief. UNICEF. Archived from the original on 2017-10-20. Retrieved 2011-01-28; Eisler, Riane (2007). *The Real Wealth of Nations: Creating a Caring Economics*. Berrett-Koehler Publishers. p. 72. ISBN 978-1-57675-388-0; Baxter, Janeen. "Women's Representation and Gender Equality in the Workplace." *Annual Review of Sociology*, vol. 48, 2022, pp. 209-231; Dahlerup, Drude, and Lenita Freidenvall. *Gender Quotas and Equality: From Adoption to Implementation in the World*. Routledge, 2020; Hofstede, Geert. *Culture and Organizations: Software of the Mind*. McGraw-Hill, 2011
- 2 Khomutova O. G, *Gender Disparities in Employment and Wages in Russia* (2019); Kotelnikova, "Barriers to Female Leadership in Belarus" (2020); Zhumabekova S. "Women's Economic Empowerment in Kazakhstan" (2021); Vasiliyeva LG. "Impact of Economic Reforms on Women's Employment in Ukraine" (2018); Mikhaylova M. Mikhaylova "Challenges Faced by Women in the Informal Labor Sector in Moldova" (2017); Iskakova G. "Cultural and Structural Barriers to Women's Labor Market Participation" (2022); Syzdykova D.A. "Migration and Its Impact on Gender Roles in Tajikistan" (2021); . Khokhlova E.A. "Gender-Based Violence and Economic Participation in Armenia" (2020); Sytova O. V. "Gender Stereotypes in the Azerbaijani Education System" (2019); Platonova M. A. "Labor Market Policies and Gender Inequality in Russia" (2018).
- 3 Abdurahmonov Q.H. "Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot", Darslik, "Fan" nashriyoti, Toshkent-2019; Abdurahmonova G.Q. "Aholining umumiy bandlik darajasini oshirishning gender xususiyatlari", "Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali" ilmiy elektron jurnali, 2024-yil, 2-son; I.Sh.Fayziyev "Gender tengligi: ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish" // *Academic research in educational sciences*. 2021. №2; Saydivaliyeva X.X. "Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, gender tengligini ta'minlash Gruziya tajribasi misolida", "Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot" jurnali, 2023-yil, 3-son; Muradova S. "Гендерная дискриминация при приеме на работу"; Шахноза Тохтиярова. Вопросы гендерного равенства в инклюзивном образовании // SAI. 2024. №Special Issue 15. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-gendernogo-ravenstva-v-inklyuzivnom-obrazovanii> (дата обращения: 31.10.2024).



qisqartirish masalalariga Q. X. Abduraxmonov, N. Jumayev, Sh. I. Mustafaqulov, M. X. G'aniyev, R. R. Xasanov, N. K. Zakirova, R. F. Djumanova va M. K. Abdullayevalar katta hissa qo'shganlar. Biroq mamlakatda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirishning nazariy asoslarini iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish nuqtai nazaridan kompleks tarzda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada shakllanmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ilmiy va zamonaviy manbalarni tahlil qilish asosida tarixiylik, tanqidiy yondashuv, qiyosiy va mantiqiy tahlil, ketma-ketlik hamda xolislik tamoyillaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida respublikada yangi iqtisodiy siyosat doirasida izchil amalga oshirilayotgan islohotlar, O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishning yangi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish jarayonlari o'rganildi.

Shuningdek, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, iqtisodiy-statistik tahlil va guruhlash usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, bandlikni oshirish va kambag'allikni qisqartirishga doir iqtisodiy tajribalar tahlil qilinib, ularni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari yoritildi.

TAHLIL NATIJALARI

Kambag'allik darajasi mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari va aholining turmush darajasida namoyon bo'lib, deyarli barcha iqtisodiy tizimlarda muhim ijtimoiy masala sifatida qaraladi. Kambag'allik mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, mehnat bozorida raqobatning sustlashuviga, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga, omonatlar hajmining qisqarishiga hamda aholi xarid qobiliyatining pasayishi natijasida umumiy bozor talabining kamayishiga olib keladi.

Shuningdek, kambag'allik shaxs yoki ijtimoiy guruhning iqtisodiy holatini ifodalab, insonlarning turmush tarzini, mehnat layoqati va salohiyatini saqlash, oilaviy farovonlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarni qondira olmaslik bilan tavsiflanadi. Bu holat ijtimoiy tengsizlikning ortishiga, turmush darajasining pasayishiga va ayrim ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy imkoniyatlari cheklanishiga sabab bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda kambag'allik "turmush kechirish, mehnat layoqatini saqlab turish va avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolidan ko'rsatkichi" sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuv kambag'allikni nafaqat daromad yetishmovchiligi, balki insonning hayot sifati va ijtimoiy imkoniyatlarining cheklanishi bilan ham bog'laydi.

"Kambag'allik" tushunchasi qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lib, turli davrlarda turlicha mazmun kasb etgan. Sotsiologlar kambag'allikni jamiyat ijtimoiy hayotining tabiiy hodisasi sifatida talqin qiladilar. U ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning namoyon bo'lish shakllari vaqt va makon jihatidan farqlanadi.

Plato o'zining *The Republic* asarida jamiyatning boylar va kambag'allar qatlamiga bo'linishini ko'rsatib, ularning birgalikda yashashi jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishini ta'kidlagan. Bu fikr kambag'allikning jamiyatdagi tabaqalanish bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Charles Booth kambag'allikni oilaning haftalik daromadi asosida baholab, minimal daromad kam mablag'ga ega bo'lganlarni juda kambag'al qatlam sifatida tavsiflagan. Uning fikricha, kambag'allar — bu muayyan mamlakatdagi odatiy hayot standartlariga muvofiq ehtiyojlari qondirilmagan shaxslardir.

Iqtisodiyot fanida kambag'allikning mohiyati bo'yicha turli nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. MDH mamlakatlari olimlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ingliz sotsiologlari S. Rountree va Ch. Booth tomonidan kambag'allik tushunchasining ilmiy muomalaga kiritilganiga e'tibor qaratadilar. Mazkur olimlar "yashash minimumi" va "kambag'allik chegarasi" tushunchalarini asoslab berganlar. Ular oziq-ovqat, kiyim-kechak va yashash sharoitlarini minimal ehtiyoj mezonlari sifatida belgilab, ushbu mezonlarga javob bera olmaslikni absolyut kambag'allik deb baholaganlar.

1-jadval. "Kambag'allik" tushunchasiga berilgan nazariy qarashlarning tavsiflanishi⁴

T/R	Mualliflar	Berilgan ta'riflar
1.	Peng Ch.	"...kambag'allik ehtimolini keltirib chiqaruvchi omillar qatorida quyidagilarni sanab o'tiladi: qarilik, ayol kishi bo'lish, turmush o'rtog'i bo'lmasligi, bir ota yoki bir ona bo'lgan oilada katta bo'lish, ishsizlik, davlat uyida ijarada turish, past savodxonlik va sog'liq darajasiga ega bo'lish. Shuningdek, oilada nogiron yoki surunkali kasallikka ega bo'lgan odamning bo'lishi".

4 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



2.	Stiglis J.	“...kambag'allik omil sifatida vertikal harakatchanlik pasayishiga, ayniqsa, uzoq muddatli “hissa qo'shadi” va butun aholining mehnat unumdorligini pasaytiradi”
3.	Sazanov S.	“...kambag'allikni absolyut va nisbiy darajalarda bo'ladi”
4.	Kolosova A.V.	“Kambag'allik – bu odamlarga jamiyat tomonidan e'tirof etilgan eng quyi standartlar darajasida iste'mol qilishga imkon bermaydigan turmush sharoiti”
5.	Yaroshenko S.S.	«Kambag'allik –inson, ijtimoiy guruhning, mamlakatning umumiy qabul qilingan yashash sharoitlarini saqlab qolish uchun zarur resurslar yo'qligi yoki yetishmasligi bilan ajralib turuvchi holati»
6.	Hasanov R.R	Kambag'alliklikning mavjudligi ijtimoiy hodisa bo'lib, iqtisodiyotning darajasi va islohotlarning samarasiga bog'liq bo'ladi. Yangi iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiyot asoslari kambag'alliklikning u yoki bu ko'rinishini keltirib chiqaradi. Yuzaki qaraganda, kambag'alliklik sub'yektning o'ziga bog'liqligi, nochor ahvolda kun kechirishida kishining o'zi aybdordek tuyuladi.
7.	Musafaqulov Sh.	“Kambag'allik”– turmush kechirish, mehnat layoqatini saqlab turish, avlodlar uzviylikini davom ettirish uchun zarur eng kam ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolidan ko'rsatkichidir”
8.	Maxmudov O.X.	Kambag'allik – bu hayot uchun muhim bo'lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo'lib, o'zi hojlagan ishlarni davom ettirishi mumkin bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhni iqtisodiy holatining o'ziga xos xususiyatidir.


Kambag'allik tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Umuman olganda, kambag'allik — bu odamlarning moddiy himoyasizligi holati bo'lib, bunda shaxsning daromadi yoki oilaning moliyaviy imkoniyatlari ijtimoiy zarur iste'mol darajasini saqlab qolish uchun yetarli bo'lmaydi.

Tezkor iqtisodiy o'sish sharoitida aholining kambag'al qatlamlari nafaqat iqtisodiy o'sish natijalaridan yetarlicha foyda ko'ra olmaydi, balki jamiyatning turli sohalarida faol ishtirok etish imkoniyatlari cheklanganligi sababli rivojlanish jarayoniga munosib hissa qo'sha olmaydi. Bu esa iqtisodiy tengsizlikning yanada chuqurlashishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, kambag'allik — bu yashash uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxs yoki inson kapitalining iqtisodiy holatini ifodalovchi ko'rsatkichdir.

Mamlakatimizda kambag'allik tushunchasi uzoq yillar davomida “yopiq mavzu” sifatida qaralib, uning o'rniga “ijtimoiy himoyaga muhtojlar” yoki “kam ta'minlanganlar” tushunchalari qo'llanilgan. Bugungi kunda esa mamlakatimizda olib borilayotgan ochiq va insonparvar siyosat tufayli mazkur muammoning mavjudligi tan olinib, uni chuqur tahlil qilish, pasaytirish va istiqbolda bartaraf etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Odatda kambag'allikning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lib, ularni iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillar, iqtisodiy tahdidlar, daromadlar tengsizligi va boshqa omillar asosida guruhlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Kambag'allikning kelib chiqish sabablari⁵

5 Muallif ishlanmasi



Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda aholining bir qismi barqaror daromad manbaiga ega emasligi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har qanday davlatda bo'lgani kabi, mamlakatimizda ham ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ularning ulushi taxminan 12–15 foizni tashkil etadi. Bu esa 4–5 million nafar aholining turmush darajasini yanada yaxshilash zarurligini anglatadi.

Ayrim oilalarda avtomobil yoki chorva mollari mavjud bo'lishiga qaramay, oila a'zolaridan birining uzoq muddatli davolanishi zarur bo'lsa, daromadning katta qismi tibbiy xarajatlarga yo'naltiriladi. Natijada oilaning kundalik ehtiyojlarini to'liq qondirish imkoniyatlari cheklanadi. Shu sababli aholining ovqatlanish, davolanish, ta'lim olish va kiyinish kabi asosiy ehtiyojlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish esa, eng avvalo, aholida tadbirkorlik ruhini shakllantirish, insonlarning ichki salohiyati va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bilan chambarchas bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish, aholining turmush darajasini oshirish hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bunda kambag'allikni qisqartirishning eng samarali yo'llaridan biri iqtisodiyotda band aholi sonini oshirish, fuqarolarni munosib va yuqori mehnat unumdorligiga ega ish o'rinlari bilan ta'minlash, ayniqsa qishloq joylarda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, kambag'allikni kamaytirish faqat ish haqi yoki nafaqalarni oshirish, yoppasiga kredit ajratish bilan cheklanmaydi. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasb-hunarga o'qitish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, infratuzilmani rivojlantirish, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarur. Shu bois mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi aholi farovonligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishning yangi mexanizmlarini joriy etishda kambag'allik tushunchasiga berilgan nazariy qarashlarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, kambag'allik — bu yashash uchun zarur bo'lgan eng muhim minimal ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxs yoki inson kapitalining iqtisodiy holatini ifodalovchi ko'rsatkichdir.

Shuningdek, kambag'allikning kelib chiqish sabablari turli omillar bilan bog'liq bo'lib, ular iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillar, iqtisodiy tahdidlar hamda daromadlar tengsizligi bilan izohlanadi. Mazkur omillarni chuqur o'rganish va ularni bartaraf etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish kambag'allikni qisqartirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Claudia Goldin Grand Gender Convergence: Its Last Chapter // *American Economic Review*. – 2014. – Vol. 104. – P. 1091–1119.
2. Sarah Pekkanen Kerr, Claudia Olivetti, Barth E. The Expanding Gender Earnings Gap: Evidence from the LEHD-2000 Census // *American Economic Review*. – 2017. – Vol. 107(5). – P. 110–114.
3. Roger LeMoyne. Promoting Gender Equality: An Equity-Based Approach to Programming. Operational Guidance 4.5. Overview in Brief. – UNICEF, 2011.
4. Riane Eisler. The Real Wealth of Nations: Creating a Caring Economics. – San Francisco: Berrett-Koehler Publishers, 2007. – P. 72.
5. Baxter J. Women's Representation and Gender Equality in the Workplace // *Annual Review of Sociology*. – 2022. – Vol. 48. – P. 209–231.
6. Drude Dahlerup, Lenita Freidenvall. Gender Quotas and Equality: From Adoption to Implementation in the World. – London: Routledge, 2020.
7. Geert Hofstede. Culture and Organizations: Software of the Mind. – New York: McGraw-Hill, 2011.
8. Khomutova N.O.G. Gender Disparities in Employment and Wages in Russia. – 2019.
9. Kotelnikova T.V. Barriers to Female Leadership in Belarus. – 2020.
10. Zhumabekova A.S. Women's Economic Empowerment in Kazakhstan. – 2021.
11. Vasilieva L.G. Impact of Economic Reforms on Women's Employment in Ukraine. – 2018.
12. Mikhaylova M.A. Challenges Faced by Women in the Informal Labor Sector in Moldova. – 2017.
13. Iskakova G.K. Cultural and Structural Barriers to Women's Labor Market Participation. – 2022.
14. Syzykova D.A. Migration and Its Impact on Gender Roles in Tajikistan. – 2021.
15. Khokhlova E.A. Gender-Based Violence and Economic Participation in Armenia. – 2020.
16. Sytova O.V. Gender Stereotypes in the Azerbaijani Education System. – 2019.



17. Platonova M.A. Labor Market Policies and Gender Inequality in Russia. – 2018.
18. Abdurahmonov K.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2019.
19. Abdurahmonova G.Q. Aholining unumli bandlik darajasini oshirishning gender xususiyatlari // Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali. – 2024. – №2.
20. Fayziyev I.Sh. Gender tengligi: ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – №2.
21. Saydivaliyeva X.X. Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, gender tengligini ta'minlash: Gruzija tajribasi misolida // Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot. – 2023. – №3.
22. Mambetjanov Q.K. O'zbekistonda nikohdan ajrashish tendensiyalari // Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot. – 2023. – №2.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
